

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilning yanvar-dekabrida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 32 943,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 8 861,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,6 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish (yanvar-dekabr)

	Mlrd.so'm		2018-yilga nisbatan % da
	2018-yil	2019-yil yanvar-dekabr	
I. YaHM	26 611,5	32 943,3	105,4
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 242,6	31 230,4	105,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	1 368,9	1 712,9	106,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 242,6	31 230,4	105,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10 245,2	11 069,9	104,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 482,3	9 385,7	108,0
sanoat	5 166,2	7 582,2	105,9
qurilish	1 316,1	1 803,5	116,0
Xizmatlar	8 515,1	10 774,8	104,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 984,4	2 359,6	104,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 707,8	1 900,7	104,3
boshqa xizmatlar	4 822,9	6 514,5	105,1

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati - 104,3 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 35,4 %), sanoat – 105,9 % (24,3 %), qurilish – 116,0 % (5,8 %) va xizmatlar sohasi – 104,7 % (34,5%).

2019-yilning yanvar-dekabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 94,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,2 % ini tashkil etdi.


Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 5,2 % punktga kamaydi va hisobot yilida 35,4 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda) tarmogʻining ulushi 4,4 % punktga oʻsdi va 30,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 34,5 % ni tashkil etdi va 2018-yilning mos davri (33,7 %) bilan taqqoslanganda 0,8 % punktga oʻsdi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018-yil



2019-yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati
- Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi
- Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,6 % ni (2018-yil – 7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,1 % ni (6,8 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 20,8 % ni (19,0 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)

2018-yil



2019-yil yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Statistika faoliyatini tashkil etish va yig`ma
axborot-taxliliy ishlar bo`limi
Nashr uchun mas`ul: A. Sattorov.
Tel: 73 241-98-71